

TIKANAK HIKOYASI.**Ikromjonova Marhabo***Uzdjtu 1-kurs talabasi*

Yuragim bong uradi, oq va qora rangdan iborat olamdaman, muvaffaqiyatga erisha olmaganlar bor, ularbeg'am va betashvish raqsga tushadi, men esa umidsizlik dengizida cho'kaman. O'zimni tushuna olmayman, tushunish uchun ichimdagi tubsiz qora tuyukga termulaman, ichida kimdir borday, xa aniq kimdir bor, u ko'ra oladi, eshita oladi, lekin gapira olmaydi, shu muammosi bor. Uni negadir shu kunlarda men ko'rolmayabman, tuynuk butkul zulmatga bulg'anmoqda, undan sas sado yo'q, men bilan gaplashishni u xoxlamaydi, chamasi. Men ortimdan quvib kelayotgan qora ritsardan qochaman, qochaman, u menga yetib oladi va qayta-qayta qilich bilan o'ldiradi. Zulmat, qorong'u bu ikki so'z bir birdan albatta farq qiladi, zulmat narigi so'zdan qorong'uroq va qo'rqinchliroq. Ichimdagi qora tuynuk zulmatdan chandon qorong'uroq, vahimaliroq. Men endi yana alvon rangni ham dunyoyimda ko'rdim, ritsarning qilichidan qizil qon oqar edi, qon hali qotmagan, oy nurida chiroyli jilovlanadi, tez orada unga ham bulutlar yetib oladi va uni to'sib qo'yadi, (voh, bundanda qorong'uroq joy bormi?) issiq qon hidi atrofdan taraladi, yulduzsiz osmonga termulaman va yana ma'no qidiraman. Balki men mantiqsizlik dunyosida ekanligimni tan olib jimgina yasharman, balki bu yerdan ketishga qaror qilarman. Ritsar sekinlik bilan dubulg'asini yechdi, uning yuzini ko'roldim va u mening o'zim edim, lekin uning ko'zlari huddi buzoq ko'zlari kabi katta va biroz menga yoqimsiz tuyildi, nega meni jarohtlading deb so'rayman undan, u menga u men ekanligimni va men ro'yo ekanligimni uqtiradi, men o'zimning yakkayu yagona dushmanim ekanligimni aytdiyu, gandaraklab ko'zdan yo'qoldi, qonga belangancha ko'zlarimni yumaman. Yashashimdan ma'no nimada, balki o'lim jarangdorroqdir. Bu mening tushlarim edi. Mamlakatda na bir qonun, na bir yonib turgan chiroq bor, (oxirgi chiroq 25 yil avval so'ngan, shundan beri na quyosh nur sochadi, va na bulutlar osmondan bir daqiqaga jilishni istashmaydi, ular o'zlari bizni qo'riqlayotganday ko'rsatadiganday, lekin mish-mishlarga qaraganda mamlakatdagi barcha chiroqlarni yo'q qilganlar, zarra ziyo qirollik sog'ligiga yorug'lik yomon ta'sir qiladi, axir ular aholini yomonliklardan himoya qilsa, ular kechalari odamlar uchun bosh qotiradiku, nahotki avom aqalli yorug'likdan voz kecholmasa) faqat va faqat matniqsizlikkigina hayot, o'tgan kuni bir mo'ysafidni ko'rdim u hayotida hech narsaga erisha olmaganidan va farzandiga yaxshi ko'rishini bir marta bo'lsagina aytmaganidan afsuslanib eski bir chirigan o'rindiq bilan dardlashardi. Bu yerda jamiki yaxshi narsalarning teskarisi, albatta bor. Ko'zimni ochganimga ham chamasi, uch yil bo'ldi, bu yillar davomida men yashagan yoki yashamagan ekanligimni ayta olmayman, chunki ba'zan qornim g'ulduraganda tirikligimga ishonch hosil qilar edim, lekin men hech narsa qilmadim, qilganim faqat qorin g'ami, aholisi faqatgina jismonan tirik edi xolos. Meni eng hayratlantirgan narsa shu ediki, bu yerda na chaqloq yig'isi yoki biror bolani uchratmadim, esim qursin, axir aytimku bu yerda faqat eng rasvo narsalarga joy bor, masalan daraxtlarda mevalar o'rniga jirkanch qoramtir o'simlik

o'sar, uni aholi tikanak deb atar edi va aholi dasturxonida asosiy mahsulot bu kaltakesak va qurbaqalar edi, albatta boshida men ko'nikolmadim, lekin inson yashayabdimi ko'nikadi, moslashadi. Xattoki shu yerda ham badjahl bulutlarga ishlaydigan odamlar bor edi, ular asosan kechasi hamma uyquga yotganda ishga tushishar kunduzlari faqat uxlashar edi, buni sen qayerdan bilasan deysizmi, xa men bilaman chunki ba'zi xarobalardan dodlash va qichqiriq eshitilar edi, ularning aybini hech kim bilmaydi, kim biladi deysiz balki "gunohkorlar" ham gunohini bilishmas, hammasi sirli va vahimali bitardi. Ertasiga yana doimgiday yoki balchiqli yomg'ir yog'ar edi, yoki huddi qisqa fayzsiz qish kulariday sovuq va nim qorong'u kun bo'lar edi. Yomg'ir yog'sa qiyin bo'lar edi, hamma xarobalariga kirib ketar, hech kim tashqarida yurishga jur'at etolmasdi, havodan anqib yoqimsiz botqoq hidi kelib turardiki, nafas olish qiyinlashib ketardi. Bu mamlakatdagi yagona yaxshi narsa bu suv edi, lekin uni topish juda ham qiyin va xatarli edi, u hammaga ham nasib qilavermasdi, aholi bir kunda atiga bir xum suv olisha ruxsat berilgan edi, lekin shu kunlarda buloq quriganini ro'kach qilib mana yetti kundan beri suv berilmaydi. Shu orada qaroqchilar ko'paymoqda, lekin ular qora bulutlarning shotirlariga bas kela olarmidi? Buloq yonida hammasi kallasi uzilarmidi, yoki miyyasiga kislata quyisharmidi, bu ularning kayfiyatiga bog'liq edi. Bugun men o'z ko'zlarim bilan erib, yelimga aylagan kallalarni ko'rdim. Endi hech kim suvga ko'z olaytirolmaydi, mabodo shunday qilsa ham muqarar jazo barchaga ma'lum. Aholi balchiq suvida foydalanishga majbur endi, mamlakatdagi yagona umidga ham chang solingan edi. Men qiziq g'yalarni o'ylay boshladim, uni hech kimga ayta olmasdim, chunki bu albatta xatarli bo'lgan bo'lar edi, lekin anchadan beri bir odam ovi, odam bilan do'stlashgandim, uning aytichicha olim edi u eng vahshiyona qurolni yaratgani uchun shu yerda edi, u qora bulutlarga qarshi harakat qilmoqchiday fikr uyg'otdi menda, lekin buni kimga ham ayta olardim, juda qo'rqqoqman. Buloq suvisiz yashayotganimizga ham chamasi bir oy bo'ldi, inson zoti albatta ko'nikadi, mana men ham ancha moslashdim va menga tikanak mazasi yoqayotganday edi. Bu yerlarda na radio, na gazeta chiqarishar edi, faqat hamma har kuni bulutlarga qasamyod qilishga majbur edi, kimdir bo'yin tovlaguday bo'lsa, yoki bor kuchi va g'ayrati bilan aytmasa, albatta u jazolanar edi. Bazi xoinlarni sirli yerto'lalarga olib ketishar edi, bu yerda hech kim bir biriga ishonolmaydi, sof-samimiy his-tuyg'ularga allaqachon janoza o'qilgan edi, hammayoq yasama kulgudan va jarangdor bulutlarning nutqlaridan iborat edi, buni hech kim payqamas edi. Odam qancha bu yerda ko'p yashasa shuncha ko'p ularga sodiq qullarga aylanar edi, endi men negadir tikanakning ta'mi menga nega yoqib ketayotgani tushunayotganda edim, ulardan qancha ko'p yesam shunchalik tez o'zligimni unutaveraman, agar yemasamchi nima bo'ladi meni yoki yerto'lalarga olib ketishadi yoki meni kuzatishga tushishadi va meni o'sha mash'um nihoya kutadi, bir tarafdin qornim och, yemasam o'lamanku axir, menga jo'yali va jarangdorroq sabab bo'lishi kerak, o'zimni oqlashim uchun, men doim o'zimni pok yashaganman deb o'ylardim, toki shu yerda yashamagunimcha, men ko'zimni ochganimda katta xarsang toshga bu yerga jirkanch ishlar qilgan insonlar kelishi yozilga edi, birinchi men buni tushim deb o'yladim, lekin keyin men o'yladim, faqat men o'zimda yetarlicha sabablarim bor deb qilmishlarimni oqlar edim, tuni bilan mijja qoqmasdim toki sabab topmagunimcha. Lekin men endi o'zgarishni

xoxlardim,xattoki menda xoinlar deb atalgan shaxslarga qiziqishim ortgandi. Men uni ertaga albatta anavi olim bilan maslahatlashmoqchi edim. Men endi qanchalik qornim ochlikdan burab og'rib qolsa ham tikanaklarni yemas edim, o'zimni zo'r berib, tiyar edim u xuddi og'u kabi meni zo'rlar edi, ba'zan boshim shunchalik og'irir ediki, tanam ming bo'lakka bo'linib,miyyamga kislata quyilganida erigani kabi sochim va yuzlarimdan ter quyilar edi, men qaror qabul qilgandim, bu mendan ancha kuch talab qildi. Har kuni miyyamda bir advakat va prokuror muhokama o'tkazar edi va prokuror yutib chiqdi,o'tkazgan umrim shunchaki jirkanch axlat kabi ko'zimga ko'rinar edi.Yaqin orada hushimdan ayrilaman va men balchiq suvidan qonib ichaman, u shunchalik badbo'y va ta'mli ediki shu zahoti ko'nglim aynir edi. Ertalab yonimga olim keldi, u ham tikanaklarnining xususiyatini tushunganini menga shipshidi,allaqachon nurini yo'qotgan ko'zlarim namlandi. Mamlakatdan ketish yo'lini bilishini va u yolg'iz emas ekanligini aytdi. Men hozir bu yer haqida ko'proq ma'lumot berishni xoxlayman, odamlardan qanaydir g'alati bir is anqiydi, menimcha bu faqat menga shunday tuyiladi. Aqldan ozib qolishimga ham oz qoldi, men o'zimni anglay olmayotgandim, ichimda huddi skripka torlari kabi bir nima chirsillab uzilar edi, odam hech o'zini tushunmasligi mumkinmi axir, u qanday uni boshqalar tushinishini istashi esa haqiqiy ahmoqlik bo'lar edi. Men yashaydigan joyda bir kampir, ikki ellik yasharlar chamasi erkak yashar edi. Men ular bilan hech gaplashmasdim , ular bilan gaplashishdan ko'ra , suv o'g'irlab o'lib ketish osonroq edi, chunki ular bu yerga kelaganiga ancha yillar bo'lib ularning miyyasi bo'shab qolgan edi, na so'zlarni ulab gapirishni bilishardi, na eshita olishardi, ularning bilgani faqat qasamyod edi. Ammo bir kuni biz kampirdan ayirilib qoldik, u ertalab qasamyod qilishga kuch topolmadi, u juda-juda qarib qolgandi,u faqat yig'lar edi, uning rangsiz ko'zlarida xuddi so'yilishini kutayotgan qo'yning ko'zi kabi edi, bulutlarning shotirlari kelganda uning ko'zlarida ko'z yoshlar qotib qolgandi, u allaqachon o'lib bo'lgan edi, hech kim yig'lamadi ham, mamlakatda odamlar hech qachon ko'milmagan edi, xarobalarga yaqin joyda bir jarlik bor edi uni o'sha yerga itqitishdi, unga orden berishdi uchunki qasamyodni hammadan chiroyliroq va balandroq aytar edi, uni hatto bir marta diktir bo'lgansan shekilli deb maqtab ham qo'yishgandi. Ordenni xarobaga ilib qo'yishdi u xarobadagi yagona yarqiroq buyum edi. Mamlakatga kelganiga o'ttiz yil bo'lgan chamasi,uning o'lgani hammaning og'zida edi. Bizga xattoki bir xumdan suv olishimizga ruxsat berishgandi, insonlarga hech tushunmaysan, biri o'lsa ikkinchisi uni nishonlaydi, naxotki inson shunchalik tez unutsa , bu yerdagi hamma bir burda ovqat uchun jon deb sherigiga tuxmat qilib xoinga chiqarishi oson, inson qimmat ana osha burdadan ham past. Bir paytlar men ham o'z do'stimni sotganim yodimga tushib, ichimni yeb bitiradi,tezroq tugasamda, bulardan qutulsam. Ayniqsa ichgan xar bir qultum suvim do'stim haqidagi xotiralarni yodimga solib,u bo'g'zimdan qo'rg'oshin quyishgani kabi meni bo'g'zimni yondirar edi, endi menga qilmishim bir soniya tinchlik bermas edi. Mana tikanak yemaganimga bir oycha bo'ldi va fikrlarim biroz teranlashganini xis qilar edim, og'riqlar ham kamayganday edi, men faqat bemaza qizil gullardan va botqoq suvida yeb kun kechirayotgan edim, daraxtda o'suvchi barcha narsalar zaharli ekanligi ishonchim komil edi, gullar borgan sari bemazalashar va men kuch quvvatdan qolayotgan edim. Olim ham mana

bir haftadirki yo'q qayergadir ketgandi, avvallari faqat kechasi qayergadir ketganini ko'rgandim, lekin u hech qachon aytmasdan ketib qolmagan edi, uni ham xoinlikda ayblashlari mumkinligidan allaqachon qo'rqa boshlagandim, uni o'zimga yaqin tuta boshlagandim, u meni yagona yaqinim edi (sizlarga aytmagan ba'zi narsalar bor, u menga boshim og'riganda yordam bergandi, tikanakni qaynatib boshga qo'yilisa o'griq kamayishini o'rgatgandi, va u menga mamlakat haqidagi sirlarni aytishini aytgandi) va bir narsaga amin edimki endi men hech kimga xiyonat qila olmayman. Kechasi uni qidirib yo'lga tushdim, ozgina balchiq suvi va bemaza gullardan oldim va davom etdim, men imkon qadar extiyot bo'lishim kerak edi, askarlar hammayoqda izg'ib yurishar edi, havo shunchalik yoqimsiz va sovuq ediki, bunga chiday olmay yuzimni to'sib olgandim. Eshitdim, xarobalar ichida dodlash ovozi eshitilar edi, beixtiyor yaqinlashaverdim, oyoqlarim ortiq menga bo'ysunmas edi, u yerga borish qanchalik xato ekanligini his qilsam ham boraverdim, xaroba chetidan poyladim, uch askar bir erkakni qiynashayotgan edi uni qo'llari va oyoqlari negadir qora rangda edi, uning boshini qirtishlashayotgan edi, keyin esa miyyasini olib qandaydir shaffof qutiga solishdi, aqlim hushimda emas edi, la'nati, toshga toyilib ketdim, ular men payqab qolishgandi, qochishni boshladim, men faqat gullar yeb deyarli madorim qolmagandi, shunday bo'lsa ham bor kuchim bilan qochar edim, men ortiq o'lishni istamas edim, bir qurigan daraxt tagiga yashirindim, askarlar yo'nalishni yo'qotgan edi, shundagina oyoqlarimga e'tibor berdim, oyoqlarimda batinkam yechilib ketgan, oyoqlarim esa go'shtga aylangandi, achishayotgani men hatto sezmasdim. Shu yerda tunab qoldim, ertalab oyog'imni boylab bo'lib, atorofni kuzata boshladim, shu payt orqamga kimdir qo'lini qo'yganini sezib qo'rqib ketdim, u olim edi, mening ko'zlarimdan yosh qatorlashib tushar edi, men unga bo'lgan voqeani onasiga do'stlari bilan urishib qolgan bola qay tarzda aytsa, men shunday aytgandim, men undan bir tassali kutar edim va men unga tamomila ishonar edim, xuddi o'zimga ishongandek. Olim menga qarab bu mamlakatning razilliklarini aytar edi va men uning ko'zlarida qandaydir yomon narsani ko'rgandek bo'ldim, bu hislarni miyyamdan quvib tashladim, men unga albatta ishonaman. Oyoqlarim yurganimda juda og'rir edi u menga yordam berar birgalikda ketardik, u meni qayergadir boshlamoqda edi. Birdan askarlar dupuri yaqinlashdi, biz qochdik lekin oyog'imni siljita olmay qoldim, ular bizni tutib olishdi. Ular bizni o'sha maxsus padvallarga olib kelishdi, bizni bir bahaybat, burni cho'chqaniki kabi katta odam so'roq qilmoqda edi. Olimning ko'zlari alqachon namlangan va iltijo qilar edi, men tergovchiga olimning aybi yo'qligini aytib yolvorar edim, chunki uni men kabi kelajaksizlik bo'tqog'iga botishini istamas edim va men hech bo'lmasa bir marta kimdir uchun qahramon bo'lmoqchi edim, xayriyatki tez orada tergovchi tez orada uni chiqarib yubordi, men o'zimda yo'q xursand edim, menda umid bor edi agar men o'lsam ham olim bu ishni oxirini topishiga, bu yerdan qochishga muvaffaq bo'lishiga ishongandim. Tergovchi meni nimalarni ko'rganimin so'ray boshladi, men hech narsa ko'rmaganimin aytganimda. U boshimga katta tayoq bilan tushirdiki, esdan og'ib qolay dedim, u qayta-qayta bir xil savolni berar, bir xil javob olib, g'azablanib uraveradi, vanihoyat hushimni yo'qotdim. Meni ustimdan balchiq suvi quyib o'zimga keltirishdi, lekin qarshimda olim o'tirar va jirkanch tabassum bilan menga tikilardi. Men barcha umidlarimi yo'qotgandim,

menga xiyonat qilishgandi, uning ko'zlari, yuzlari shunchalik xunuk ko'rinib ketgandiki, undan men nafratlana boshlagandim, beixtiyor do'stim yana yodimga tushib ko'zlarim, o'zim xoxlamasamda namlandi, hayolimda men u bilan yolg'iz qolgandim. O'sha payt men uni mansab uchun unga tuhmat qilganimu, u bilan o'tgan bolaligim ham, bitta kartoshkani bo'lib yeganimiz ham hammasi huddi kaseta singari ko'z oldimdan birma-bir o'tar edi. Hayolan shunga majbur qilishgani aytib, onam operatsiyasi uchun pul kerak bo'lganligini aytib undan kechirim so'rar edim. Birdan olimning shovqinli ovozi hayolimni buzdi, u mukammal davlatimizga shubxa qilganligimni, tikanakni zaharli deb gap tarqatganimni va eng asosiysi qasamyodlarga layoqatsiz ekanligimni aytib meni eng oliy jazoga tortishini aytdi. Men uning kechalari nega yo'q bo'lib qolishini ham, meni o'rmondan qanday topib olganini ham endigina bilgandim. U menga qora bulutlarga sodiqligini va ular eng buyuk shaxs ekanini uqtirishar edi, ortiq mening miyyam hech narsa haqida o'ylamas edi, oyoqlarim og'riqlari ham, dubinka zarbini ham, olimning gaplarini ham butkul his qilmayotgandim. Gunohkorga eng oliy jazo miyya operatsiyasini qilishdi, uni ikki shifokor miyyasini o'rniga tikanakga oxshash jismga almashtirib qo'yishdi. U endi u tirik edi, tikanaklarni hammadan yaxshi ko'rar edi, va u hammadan balandroq va jarangdorroq qasamyod qilar edi, ba'zilar uning xattoki kechasi ham qasamyod qilishini eshitib qolishardi va uni avval diktir bo'lgansan shekilli deb maqtab qo'yishardi.